

O`ZBEKISTON RES`UBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

O`ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

5141100 - o`zbek tili va adabiyoti bakalavr

ta`lim yo`nalishi bitiruvchisi

O`rinbayeva Tozagulning

Mavzu: 5-sinf ona tili darslarida morfologiya va sintaksis mavzularini
integratsiyalash

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

NUKUS - 2014

Malakaviy bitiruv ishi O'zbek tilshunosligi kafedrası yig'ilishining 2014-yil «___» _____dagi №__ bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.

Fakultet dekani:

f.f.n., dots. G.Qurbaniyozov

Kafedra mudiri:

f.f.n. M.Xudayarova

Ilmiy rahbar:

D.Kabulova

O'rinbayeva Tozagul Farxod qizining «5-sinf ona tili darslarida morfologiya va sintaksis mavzularini integratsiyalash » mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga Davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan «___» ball («__%») qo'yildi.

«___» _____ 2014-yil

DAK kotibi:

I.Madiyarov

Mavzu: 5- sinf ona tili darslarida morfologiya va sintaksis mavzularini integratsiyalash

Reja:

Kirish

Asoslama

1. Bob. 5-sinfda ona tili ta'limining mazmuni;

1.1. Ona tili ta'limining maqsad va vazifalari;

1.2. 5-sinf o'quvchilari ona tilidan egallaydigan bilim, ko'nikmalar va malakalar

2. Bob. 5-sinfda morfologik va sintaktik hodisalarni o'rgatishda integratsiyalashning ahamiyati

2.1. "Sintaksis va morfologiya" bo'limlarining integratsiyasi

2.2. Integratsiyalashgan darslarda grammatik o'yinlardan foydalanish.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kirish

Ona tili barcha fanlarni o'rganish uchun vosita, "...hamma va har qanday bilimga o'tiladigan bir ostona..." (A.M.Peshkovskiy) ekanligiga shak-shubha yo'q. Maktabda ona tilini fan sifatida o'qitmay turib ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalab bo'lmaydi, – degan edi A.G'ulomov. – Chunki ona tili fani o'quvchilarni milliy til va uning tarixi, boy madaniy o'tmishi bilan tanishtiradi, milliy qadriyatlarimiz, an'analarimiz, urf-odatlarimizni qadrlashga o'rgatadi. Ona tili avlodlarni avlodlarga bog'lovchi zanjirdir¹.

Ma'lumki, ona tili ta'limining mazmuni, asosan, 50-yillarning o'rtalarida shakllandi. Tan olish kerakki, 50-60-yillar ona tili ta'limiga bugungi kunda ayrim metodist-olimlar tanqidiy ko'z bilan qarayotgan bo'lsa ham, mazkur fan xalqimizning savodxonligini oshirishga xizmat qildi. "Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchi nutqini rivojlantirishga qaratilgan foydali amaliy ishlar o'rniga son-sanoqsiz grammatik talqin, qoida va ta'riflarni ko'r-ko'rona "o'zlashtirish", ya'ni ularni qorilarcha yodlab olishdan nariga o'tilmadi", – deganida A.G'ulomov mavjud holatni ancha bo'rttirib yuborgandek. Ma'lumki, grammatika grekcha so'z bo'lib, tilshunoslikning so'z va gap qurilishini o'rganuvchi, shunga ko'ra ikki qismdan – morfologiya va sintaksisdan iborat bo'lim. Biror tilning o'ziga xos so'z o'zgarishi va so'zlarning gapda o'zaro birikish qoida va normalari majmui. Shu qoidalar bayon etilgan o'quv kitobi, darslik². Lomonosov ta'biri bilan aytganda, grammatika o'qish va yozish haqidagi bilimdir.

60-70-80-yillar o'quvchilari bilan bugungi kun o'quvchilari yozgan yozma ishlar taqqoslansa, katta tafovut ko'rish mumkin. Haqiqatdan ko'z yummaganda holda aytish o'rinliki, sobiq o'quvchilar yozma ishlarining savodxonlik darajasi yuqori bo'lib chiqadi. Bu balki grammatikaning chuqur o'rgatilganidandir.

Ona tili ta'limidagi yana bir murakkablik grammatik talqinlar bilan bog'liq chalkashliklar edi, – deb yozadi A.G'ulomov³. Aytish mumkinki, grammatik talqinlar bilan bog'liq chalkashliklar ona tili ta'limi emas, birinchi navbatda o'zbek

¹Ona tili o'qitish metodikasi. 23-b.

²O'zbek tilining izohli lug'ati. –M.: 1981 yil, 1-jild. 193-b.

³Ona tili o'qitish metodikasi. 25-b.

tilshunosligida olib borilgan tadqiqotlar yo‘nalishi, saviyasi bilan bog‘liqdir. To‘g‘ri, morfologiya, sintaksis sohalarida olib borilayotgan yangi tadqiqotlar tufayli nazariy qarashlar yangilandi, xususan, A.G‘ulomov o‘rinli ta’kidlaganidek, olmoshning nafaqat ot, sifat, son, balki, fe‘l, ravish, taqlidiy so‘z, undov, gap va hatto matnni almashtira olishi, ularga ishora etish xususiyati hisobga olinmagan edi. Mavjud chalkashliklardan biri bir so‘z turkumidan ikkinchi so‘z turkumiga o‘tish talqini edi. ... Sintaksisda ulkan chigallik tug‘dirgan masalalardan biri gap talqini masalasi edi. Shaxs-son, zamon ko‘rsatkichiga ega bo‘lmagan kesimlar ham “kesim” deb atalib, “Men borganda...”, “U kelgandan keyin...” tipidagi gaplar ham qo‘shma gap sifatida qaraldi⁴. Bu o‘zgarishlar, albatta, bugungi kun maktab grammatikasida o‘z ifodasini to‘pdi. Nazarimizda, 60-90-yillar tilshunosligi yutuqlariga tayangan holda ish olib borganligi ona tili ta’limining kamchiligi sifatida qaralmasligi lozim.

“Ona tili o‘qitish metodikasi” muallifining quyidagi fikrlari esa aynan ona tili ta’limining og‘riqli nuqtasi haqidadir: Sho‘ro ta’limi sharoitida nafaqat ta’lim mazmuni, balki o‘qitish usulida ham dogmatizm hukmron edi. Ona tili ta’limi o‘quvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda bayon qilishga o‘rgatishdan ancha yiroq bo‘lib, ona tili ta’limining asosiy maqsadi – nutqni shakllantirish va rivojlantirish uning soyasida qolib ketgan edi. Chunki sho‘rolar tuzumiga labbaygo‘y, itoatkor shaxslar kerak edi⁵. 90-yillarning boshlaridan ona tili ta’limini tubdan isloh qilishga doir bir qadar muvaffaqiyatli qadamlar tashlandi. “O‘zbek tili” doimiy anjumanlarida qator muammolarning muhokamaga qo‘yilishi, “O‘zbek maktablarida ona tilini o‘qitish konsepsiyasi”ning tasdiqlanishi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’limning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori tufayli ona tili ta’lim mazmuni va usulini yangilashga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirila boshlandi.

A.G‘ulomov to‘g‘ri qayd qilganidek, ona tili ta’limi oldiga qo‘yilgan ijtimoiy buyurtma o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini tinglashga va shu fikr

⁴Ona tili o‘qitish metodikasi. 25-b.

⁵Ona tili o‘qitish metodikasi. 26-b.

mahsulini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga, ya’ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga o‘rgatishdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda ona tili ta’limi oldiga mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo‘yildi⁶.

⁶Ona tili o‘qitish metodikasi. 29-b.

Asoslama

Ma'lumki, so'z turkumlari grammatikaning tarkibiy qismi sifatida nutq jarayonlari bilan bog'lanib ketadi. So'zlarning yasalihi hamda o'zgarishiga aloqador grammatik qonuniyatlarga asoslangan holda nutq jarayoni yuzaga keladi. Tanganing orqa tomoni sifatida esa boshqa bir qonuniyat ham mavjud. Bu nutq jarayonidagi hodisalarga asoslangan holda grammatik qoida va qonuniyatlarning o'rganilishidir. Demak, grammatika nutq jarayonlarini me'yorlashtirishda, uni yengillashtirishda qanchalik ishtirok etsa, uning namoyon bo'lishi, amalga oshishi ham shunchalik nutq jarayoniga bog'liqdir⁷.

Beshinchi sinf ona tili darslarida morfologiya va sintaksis mavzularini integratsiyasi asosida o'quvchilar nutqiy malakalarini o'stirishning eng muhim omil ekaniligini nazarda tutib ushbu malakaviy ishimizni «5-sinf ona tili darslarida morfologiya va sintaksis mavzularini integratsiyalash» deb nomladik. Albatta, so'z turkumlari va gap turlarini o'rgatishning an'anaviy usullaridan foydalangan holda erishilgan yutuqlar salmoqli. Shunday bo'lsa ham, ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv tufayli kirib kelayotgan zamonaviy texnologiyalar ona tili o'qitish samaradorligini yanada orttirishi shubhasiz. Tanlagan mavzumiz shuning uchun ham dolzarblik kasb etadi.

Tadqiqotimiz mavzusi – morfologiya va sintaksisni o'rganish jarayoni 5-sinflarda alohida o'rin tutadi. Morfologiyani o'rganish tufayli o'quvchilarning mustaqil va ijodiy tafakkur doirasi kengayadi, ularning lug'at xazinasini boyiydi, morfologik hodisalar bilan tanishish jarayonida imlo savodxonligi rivojlana boradi. Sintaksisni o'rganish jarayonida esa gap va gap bo'laklari haqidagi tasavvurlari kengaya boradi.

So'z turkumlarini o'rganishda so'zning tarkibi, yasalihi jarayoni bilan tanishuvi orqali o'quvchilar so'zning lug'aviy va grammatik xususiyatlarini kuzatish, farqlash, o'zaro qiyoslash, ularni nutq vaziyatiga mos ravishda to'g'ri tanlash va to'g'ri qo'llash malakalarini egallashlarini nazarda tutgan holda so'z turkumlari va gap, gap

⁷To'xliyev B., Inog'omova R., Tilavova G. So'z turkumlari va nutq o'stirish metodikasi. –T.: 2008. 5-b.

bo‘laklarini integratsiyalashga bag‘ishlangan darslarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish bo‘yicha metodika fani yutuqlari va amaliyot jarayonidagi kuzatishlarimiz natijalarini bayon qilishni maqsad qildik.

I. Bob. 5-sinfda ona tili ta’limining mazmuni

1.1.Ona tili ta’limining maqsad va vazifalari

Mustaqillikka erishganimizdan keyin barcha jabhalarda bo‘lgani kabi ta’lim-tarbiyada ham o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.”Davlat tili haqidagi”, ”Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ” kabi qonunlarning qabul qilinishi fikrimizning dalili hisoblanadi. Prezidentimiz Islom Karimov: ”Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq”⁸. Shunga muvofiq “Ona tili” fanini o‘qitish oldiga butunlay yangi maqsad va vazifalar qo‘yilmoqda. “Ona tili” fanini o‘qitishning bosh maqsadi yoshlarimizni ijodiy fikrlashga, o‘z fikrini erkin va ta’sirli qilib yozma va og‘zaki shaklda ifodalashga, o‘zbek tili qonun – qoidalarini ongli o‘zgartirishga o‘rgatish, shunigdek, ularning fikr doirasini kengaytirishga, Vatanimizga, milliy an’analarimizga, boy ma’naviyatimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga qaratilgandir.

Ana shu bosh maqsaddan kelib chiqqan holda 5-sinfda “Ona tili”fanini o‘qitish oldiga quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

- o‘quvchilarni erkin fikrlashga o‘rgatish;
- o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda o‘zbek tilining qonun – qoidalariniga muvofiq ravishda to‘g‘ri ifodalash;
- Orfografiya va punktuatsiya qoidalarini singdirish;
- Ish qog‘ozlarini yurita olish ko‘nikmasini berish;
- olamni bilishda ona tilining ahamiyatini singdirish.

⁸.Karimov.I.A. yuksak ma’naviyat yengilmas kuch . –T.: 2008. 61-b.

O'quvchining bilim saviyasiga qo'yiladigan talab esa, ta'lim jarayoni oldiga qo'yiladigan ijtimoiy talab bilan belgilanadi. Bu talablar esa O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni 7-moddasida «Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi»⁹, - deyilgan.

Shunday ekan, Davlat ta'lim standartlari, shu jumladan, ona tili Davlat ta'lim standarti ham ta'lim jarayoni oldiga qo'yilgan ijtimoiy talablardan kelib chiqqan holda belgilab berildi¹⁰. Ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga, ya'ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga o'rgatishdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda ona tili ta'limi oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan, savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo'yiladi.

Shu maqsadga ko'ra ona tili ta'limining mazmuni:

-o'quvchining fikrlash salohiyatini, aqliy rivojlanishini, mantiqiy tafakkurini o'stirish;

-o'quvchilarni o'z-o'zini, moddiy borliqni tilning ifoda vositalari yordamida anglashga hamda o'z fikri va his—tuyg'ularini ona tilining keng imkoniyatlari doirasida bayon eta olishini ta'minlash vazifalarini hal etishga yo'naltiriladi.

Standartlashtirishning umumiy talab va mezonlariga ko'ra ona tili ta'lim standarti kommunikativ modelga asoslangan ta'lim mazmunidan kelib chiqib belgilab berildi.

Ona tili ta'lim standarti ona tilidan belgilanadigan ta'lim mazmunining ijtimoiy talab taqozo qilgan majburiy hajmini hamda o'quvchilarning yoshi va taraqqiyot darajasi, ehtiyoj va imkoniyatlarini hisobga olgan holda tanlanadigan o'quv yuklamasining hajmini, umumiy o'rta ta'lim maktablari bitiruvchilarining bilim, ko'nikma, malakalariga qo'yiladigan talablarni belgilab beradi.

Ona tili ta'limi natijasida o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalar uch parametrli standart ko'rsatkichlar asosida tekshiriladi va aniqlanadi.

⁹ O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni 7-modda

¹⁰ Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti.-T.:2010.10-b

1.2. Beshinchi sinf o'quvchilariga ona tilidan egallaydigan bilim, ko'nikma va malakalar

O'quvchilar ona tili fanidan quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shart:

- grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlar:

fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalar.

- nutqni o'stirish:

birinchi yo'nalish – o'quvchilarning so'z boyligini kengaytirish (o'quvchilarning o'zlari uchun yangi bo'lgan so'zlarning ma'nosini va qo'llanish doirasini aniqlash);

ikkinchi yo'nalish – o'zbek adabiy tili me'yorlarini o'rganish, adabiy talaffuz me'yorlari (to'g'ri talaffuz me'yorlari, so'z birikmalari va gap tuzish me'yorlari, so'z turkumlari va sintaktik tuzilishlarining uslubiy mkoniyatlari, xususan, sinonimikasi) shuningdek, lug'aviy sinonimika va qo'shimchalarning sinonimikasi hamda, umuman, grammatik sinonimika bilan tanishish;

- uchinchi yo'nalish – o'quvchilarda fikrni og'zaki va yozma bog'lanishli bayon qilish malaka va ko'nikmalari shakllanadi. Shu maqsadga ko'ra ona tili ta'limining mazmuni:

- o'quvchining fikrlash salohiyatini, aqliy rivojlanishini, mantiqiy tafakkurini o'stirish;

- o'quvchilarni o'z-o'zini, moddiy borliqni tilning ifoda vositalari yordamida anglashga hamda o'z fikri va his-tuyg'ularini ona tilining keng imkoniyatlari doirasida bayon eta olishini ta'minlash vazifalarini hal etishga yo'naltiriladi.

Ona tili ta'limi natijasida o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalar uch parametrli standart ko'rsatkichlar asosida tekshiriladi va aniqlanadi.

1. O'qish texnikasi. Bu parametr orqali o'quvchining notanish bo'lgan matnni ifodali o'qiy olish ko'nikmasi aniqlanadi. Bunda miqdoriy ko'rsatkich sifatida ifodali o'qish tezligi, ya'ni berilgan matndan minutiga nechta so'z o'qiy olish ko'rsatkichi olingan. Sinf-dan-sinf-ga o'tish davrida miqdoriy ko'rsatkichdagi so'zlarning soni oshishi bilan birga berilgan matnni o'qishdagi talablar ham bolaning yoshiga monand ravishda ortib boradi.

2. O'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash malakasi bolaning og'zaki bayon qilinayotgan o'zgalar fikrini hamda yozma matn mazmunini anglay olish darajasini aniqlash maqsadida kiritilgan. Bu parametr o'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda uni og'zaki qayta bayon qila olish darajasini aniqlaydi.

3. Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi (tugal fikr ifodalangan matn) murakkab jarayon bo'lib, ona tili ta'limining maqsadi shu parametrda mujassamlashadi. O'quvchining ona tili ta'limi jarayonida egallagan ko'nikma va malakalari u yaratgan matnda aks etadi. Bu parameter bo'yicha ta'lim sifatining natijasini baholashda o'qituvchi tomonidan o'quvchi egallagan quyidagi ko'nikmalarning darajasi aniqlanadi:

- fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligi;
- fikrlash, mavzuning murakkablik darajasi (sodda, murakkab, aniq, mavhum va hokazo);
- tavsifning mavzuga muvofiqligi va tavsifning qiymati;
- tavsifda tilning ifoda vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish darajasi;
- imloviy (yozma) savodxonlikning sifati. Ona tili ta'limi jarayonida pedagogikaning ta'lim va tarbiya birligi tamoyiliga rioya qilinadi hamda izchil amalga oshirib boriladi. O'quvchilar dunyoqarashini muntazam boyitib borish, mustaqil fikrlash ko'nikma va malakalarini yanada rivojlantirish kabi maqsadlardan kelib chiqib, fanlararo bog'lanish yo'lga qo'yiladi. Bunda darslikda beriladigan amaliy mashqlarning milliy qadriyatlar, adabiy jarayon, tarixiy voqea-hodisalar, tabiiy boyliklar, hayvonot olami, fizikaviy va kimyoviy hodisalarga oid matnlardan tanlanishiga e'tibor qaratiladi.

O'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan zaruriy talablar aniqlanadi.

5-sinf

Bilimlar: Tilning kishilik jamiyatidagi ahamiyati. O'zbek tilshunosligi, o'zbek adabiy tili, o'zbek xalq shevalari, til va yozuv, dunyo tillari, yozma adabiy nutq, og'zaki adabiy nutq, nutq va matn, matnning xarakteri. «Davlat tili haqida»gi Qonunning tarixiy va ijtimoiy ahamiyati.

O'zbek tilshunosligining asosiy bo'limlari.

Sintaksis. So'z birikmasi, gap, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari (darak gap, so'roq gap, buyruq gap, his-hayajon gap), gap bo'lagi, gapning bosh bo'laklari: ega, kesim.

Sodda gap, yig'iq sodda gap, yoyiq sodda gap. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari: to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol. Tinish belgilari, ko'chirma gap. Uyushiq bo'lakli gaplar. Undalma.

Fonetika. To'g'ri talaffuz (orfoepiya). Grafika, imlo. Nutq a'zolari. Nutq tovushlari va harflar, harf birikmalari. Unli va undosh tovushlar. Jarangli va jarangsiz undoshlar. So'zda tovushlarning almashinishi. Unli va undosh tovushlar imlosi. Ochiq va yopiq bo'g'in. Bo'g'in ko'chirish qoidalari. So'zni bo'g'inlarga ajratish. So'z urg'usi va mantiqiy urg'u.

Grafika. Alfavit, bosh harf, tutuq belgisi, ko'chish belgisi, harflar birikmasi, qator kelgan bir xil undosh harflar, o'zbek tili imlosining asosiy tamoyillari, imlo qoidalari.

Leksikologiya. So'z va uning ma'nolari. O'zbek tilining so'z boyligi. Lug'atning asosiy boyish manbalari. So'z ma'nosi, lug'aviy ma'no. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar. So'zning bosh ma'nosi. So'zning o'z va ko'chma ma'nosi. So'zning o'z va ko'chma ma'noda qo'llanishi borliqni aniq va ramziy ifodalash vositasi sifatida.

Sinonim (ma'nodosh), uyadosh so'zlar, antonim (zid ma'noli), omonim (shakldosh) va paronimlar. Iboralar, ularning lug'aviy ma'nosi, uslubiy o'rni va nutqdagi vazifasi.

Izohli lug'at, imlo lug'ati, sinonimlar lug'ati. Lug'at va lug'atlarning turlari. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbek tilining sinonimlar lug'ati. O'zbek tilining antonimlar lug'ati.

Morfologiya. So'z tarkibi. O'zak. So'z yasalishi. So'zning o'zak qismlari. O'zakdosh so'zlar. Qo'shimchalarning turlari: so'z yasovchi, so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar.

So'zlarning turkumlarga bo'linish mezonlari. Mustaqil so'z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish). Yordamchi so'z turkumlari (bog'lovchi, ko'makchi, yuklama, undovlar, modal so'zlar, taqlid so'zlar).

Ot so'z turkumi, uning lug'aviy ma'nosi, morfologik belgilari va sintaktik vazifasi. Otning ma'no turlari. Atoqli otlarning uslubiy qo'llanishi. Otlarda son shakllari. Ko'plik qo'shimchasi. Kelishiklar. Egalik qo'shimchalari. Otlarning tuzilish jihatdan turlari (sodda, juft, qo'shma va qisqartma otlar).

Fe'l, uning lug'aviy ma'nosi, morfologik belgilari va sintaktik vazifasi. Fe'lning tuslanishi. Fe'l zamonlari. O'tgan zamon, hozirgi zamon, hozirgi-kelasi zamon, kelasi zamon fe'llari.

Ko'nikmalar: Tilning kishilik jamiyatidagi ahamiyati, o'zbek tilshunosligi, o'zbek adabiy tili, o'zbek xalq shevalari, til va yozuv, tilning paydo bo'lishi, tillar o'rtasidagi munosabatlar, dunyo tillari,

yozma adabiy nutq, og'zaki adabiy nutq kabilarni izohlay olish: so'zlarning turkumlarga bo'linish mezonlari haqida tasavvur hosil qilish, mustaqil so'z turkumlari va yordamchi so'z turkumlarini farqlay bilish; umumxalq so'zlari bilan qo'llanish doirasi cheklangan so'zlarni, so'zlashuv leksikasi bilan kitobiy leksikani, so'zning lug'aviy va grammatik ma'nolarini, tub so'zlar bilan yasama so'zlarni, sodda, qo'shma va juft so'zlarni, so'z turkumlarini, mustaqil so'z bilan yordamchi so'zni, so'z bilan so'z birikmasini, sodda gaplarning turlarini, gap bo'laklarini, sodda gap bilan qo'shma gapni o'zaro farqlay olish; fonetik, lug'aviy, leksik, morfologik jihatdan qisman

sintaktik tahlil qila olish; grammatik atamaga asoslanib grammatik vositani va qoidani, grammatik vositaga asoslanib grammatik atama va qoidani eslay olish;

Sintaksis bo'yicha. So'z birikmasi, gap, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini farqlay bilish, gap bo'lagi, gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari, undalmani nutqda to'g'ri qo'llay olish.

Fonetika bo'yicha. Orfoepiya, grafika, imlo, nutq a'zolari, nutq tovushlari va harflar, harf birikmalari, unli va undosh tovushlar, so'zda tovushlarning almashinishi, ochiq va yopiq bo'g'in, bo'g'in ko'chirish qoidalari, so'zni bo'g'inlarga ajratish, so'z urg'usi va mantiqiy urg'uni izohlay olish;

Leksikologiya bo'yicha. So'z va uning ma'nolari. O'zbek tilining so'z boyligi. Lug'atning asosiy boyish manbalari. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar. So'zning o'z va ko'chma ma'nosini farqlay olish, iboralar haqida tasavvurga ega bo'lish, lug'at va uning turlarini farqlay bilish.

Morfologiya bo'yicha. So'z tarkibi, o'zak, so'z yasalishi, so'zning o'zak qismlari, o'zakdosh so'zlar, qo'shimchalarning turlarini ajrata olish.

Malakalar: matn yaratish darajasida gap tuzish; mustaqil gaplarni o'zaro bog'lay bilish, gapda so'z tartibini to'g'ri belgilash; matnda xat boshining yaxlitligi va fikr izchilligi, muhokama elementli matn yaratish; fikrni yozma ravishda bayon etish (miqdoriy ko'rsatkich — 10-12 gap); tinish belgilaridan (undalmali gaplarda), uyushiq bo'laklarda, ajratilgan izoh bo'laklarda, undalmalarda va qo'shma gap qismlarini bog'lashda, ko'chirma gapda, dialogda to'g'ri foydalanish; grammatik atama va tushunchalardan, qoida va ta'riflardan matn yaratish jarayonida foydalanish. O'rganilgan gap qurilishlariga mos keladigan matn yaratish; darak,so'roq, buyruq gaplarni, uyushiq bo'lakli, qo'shma va ko'chirma gaplarni ifodali o'qish; unli va undosh tovushlarni orfoepiya qoidalariga muvofiq to'g'ri talaffuz qilish; qo'shma va qisqartma otlarni, qo'shma fe'llarni to'g'ri yozish; nutqda sinonim, omonim, antonim va uyadosh so'zlardan o'rinli, uslub talabiga ko'ra to'g'ri foydalanish; imlo lug'atidan va ikki tilli lug'atlardan, izohli va boshqa lug'atlardan foydalanish; uyadosh so'zlarga

misollar keltirish; atamalar va mahalliy so'zlarni ajratish, ular orasidagi ma'noviy farqlarni aytib berishi kerak.

Xullas, 5-sinfda 4-sinfda o'rganilganlar bilan uzviylikda tilning sintaksis va morfologiya sathlaridan dastlabki ma'lumotlar amaliy o'rgatiladi. Bu maqsadlarni o'rgatishga rejalashtirilgan dars mashg'ulotlarida "O'quvchi yozma nutqining imloviy savodliligi, og'zaki nutqning to'g'ri , ravon , ta'sirchan bo'lishi, diologik nutqning ta'sirchan ,izchil bo'lishi, mantiqiy jihatdan aniq bo'lishi, fikr ehtiyoji bilan amaliy-nazariy, usuliy ahamiyat kasb etashi tabiiydir.

II Bob. 5-sinfda morfologik va sintaktik hodisalarni o'rgatishda integratsiyalashning ahamiyati

2.1. "Sintaksis va morfologiya" bo'limlarini integratsiyalash asosida o'rgatish

Respublikamizda ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan islohotlarda ta'lim-fan-ishlab chiqarish integratsiyasi tez-tez tilga olinmoqda. Ta'limning hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti, bozor iqtisodiyoti va ishlab chiqarish bilan uzviy hamkorlikda rivojlanishi zarurligi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ham ahamiyatli g'oyalardan biridir. Shuning uchun ham ta'limni rivojlantirishda integratsiyadan unumli foydalanish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Ta'limda o'quvchilarga ma'lum bilimlar tizimini yetkazib, ularni faqat eslab qolishning o'zi bugungi kunda yetarli bo'lmay qoldi. Zamonaviy bilim olishda motivatsiya uyg'otish, mustaqil bilim olish ishtiyoqini hosil qilish, integratsiya asosida ta'lim berish dolzarb vazifalardandir. Pedagogik texnologiya ana shunday talabni ro'yobga chiqarishga qaratilgan ta'lim tizimidir. Texnologiyaning asosiy talabi-o'quvchilarning puxta bilim olishi, bilimlarni o'zlashtirishda faollik ko'rsatishi, mustaqil fikrlashi, ta'limda aniq samarador natijaga erishishdir. Integratsiya-ayrim bo'laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo'shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishidir. "Integratsiya" tushunchasi XVIII asrdayoq Spenser tomonidan izohlangan edi. Biz ham integratsiyani tafakkur o'stirish omili sifatida qarab, uni

fanlararo aloqa hamda ta'lim shakllarini sintezlash tarzida talqin etishga harakat qildik.

Integratsiya - «butun» degan ma'noni bildiradi, demak, bu tafakkur o'sishi jarayonining turli qism va elementlarini bitta butunga birlashtirish bo'lib hisoblanadi.

O'zbek tilining izohli lug'atida integratsiya so'ziga quyidagicha izoh berilgan:

“Integratsiya” (lotincha *integratio* – tiklash, qaytadan boshlash, to'ldirish).

1. Ayrim qismlarning, elementlarning bog'liqlik holatini, ularni qo'shib birlashtirishni ifodalovchi tushuncha.
2. Fanlarning yaqinlashishi va o'zaro bog'lanish jarayoni.
3. Ikki yoki undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o'zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish¹¹.

Integratsiya fanlarning mexanik birlashishi emas, bu sintez, yangi narsaning kelib chiqishi, kashfiyotdir. Alohida sistemalarning yaqinlashishi, bog'lanishi va yagona bir yangi narsaning yaratilishidir.

Integratsiya - differentsiatsiyaning aksi bo'lib, unga teskari bo'lgan jarayondir. Uni quyidagi yo'nalishlarda tatbiq etish maqsadga muvofiq:

- o'quv predmetlari va fanlar doirasidagi mazmunni integratsiyalab o'rganish;
 - turli o'quv predmetlaridan tahsil beruvchi shaxslarning faoliyatlarini integratsiyalash;
 - ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish shakllari yoki o'quv kunini integratsiyalash.
- Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standartlarida bunga alohida e'tibor qaratish lozimligi uqtiriladi.

O'quvchilar dunyoqarashini muntazam boyitib borish, mustaqil fikrlash ko'nikma va malakalarini yanada rivojlantirish kabi maqsadlardan kelib chiqib, fanlararo bog'lanish yo'lga qo'yiladi. Bunda darslikda beriladigan amaliy mashqlarning milliy qadriyatlar, adabiy jarayon, tarixiy voqea-hodisalar, tabiiy boyliklar, hayvonot olami, fizikaviy va kimyoviy hodisalarga oid matnlardan tanlanishiga e'tibor qaratiladi¹².

Integratsiya tafakkur o'stirish uchun imkoniyat, sharoit yaratib beradi. Integratsiya-o'quvchi bilan individual ishlash va uni faollashtirishning muhim vositasi.

Fanlararo aloqani darslarda tashkil qilish natijasida o'quv fanlarining soni kamayib, samarasi puxta bo'ladi, tahsil oluvchilarni mustaqil ishlashga jalb etish oson kechadi. Integrativ darslarni tashkil qilish orqali munozara qildirish, fantaziya qila olishga o'rgatish, guruhlararo musobaqa, savol-javoblar tashkil qilish mumkin.

A.G'ulomov hamda H.Nehmatovlar ta'kidlashicha, boshqa fanlardan olingan ma'lumotlardan foydalanib, o'quvchilarni nutq uslublari bilan tanishtirish imkoniyatiga ega bo'lmoq lozim. O'quvchilar badiiy uslubni adabiyot, ilmiy uslubni biologiya, kimyo, fizika, matematika, ish qog'ozlari uslubini huquq asoslari fanlaridan olingan materiallar asosida o'rganishlari zarur.

Bunday zamonaviy dars turlarini qo'llashdan asosiy maqsad o'quv jarayonida tinglovchilar faoliyatini faollashtirish, o'quv materialini o'zlashtirishning yuqori darajasiga erishishdan iborat. Ana shunday texnologiya o'quvchilarda dunyoni o'zgacha tasavvur qilishga o'rgatadi, amaliyotni hayot bilan bog'lashga, nazariy qoidalarni so'zma-so'z yodlamaslikka, shaxs va jamiyat uyg'unligini anglashga, fikrlar rang-barangligiga erishishga, nostandart tafakkur qilishga, shuningdek, o'z-o'zini rivojlantirish yo'llarini tushunishga imkon yaratadi.

Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini uzviyligini ta'minlanishi ham ta'lim integratsiyasini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Taraqqiyot sari yuz tutib borayotgan bugungi axborotlar asri ertangi kun yoshlaridan turli muammoli vaziyatlarda o'zini-o'zi to'g'ri baholay oladigan, mustaqil fikriga ega bo'lgan, aqliy va ruhiy imkoniyatlaridan yuksak sa'yi-harakatlar yo'lida foydalana oladigan ijobiy xususiyatlar sohibi bo'lishni taqozo etmoqda. Bu esa to'g'ri tashkil etilgan ta'sirchan ta'lim hamda o'qitish jarayonida tarkib topib boradigan insoniy sifatlar, axloqiy xususiyatlar, ko'nikmaga aylanib boradigan ijodiy faollik darajasi bilan belgilanadi.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda 5-sinf ona tili darsligini tahlil qilganimizda mavzu va mashqlarni integratsiyalash asosida o'rgatishga alohida e'tibor qaratilganligining guvohi bo'ldik. Bunga misol qilib quyidagilarni ko'rsatish mumkin: So'roq yuklamalari yordamida ifodalangan so'roq gaplar mavzusida 99-

mashq uyga vazifa uchun berilgan topshiriq shartida "Bobongiz, buvingiz yoki keksa yoshdagi qo'shnilaringiz bilan tarix haqida suhbatlashing. Mazmunini qisqacha qilib daftaringizga yozing. Unda *So'roq yuklamalaridan foydalaning*", 228-mashq uyda bajarish uchun mo'ljallangan bo'lib bunda" Adabiyot darsligida berilgan asarlardan oltita yordamchi so'zlar ishtirok etgan gapni ko'chiring", 540-mashqda "Tarix fanida ishlatiladigan atamalar va ularning izohlariga e'tibor bering. Shu fan doirasida ishlatiladigan yana qanday atamalarni bilasiz?", 541-mashqda "Quyida berilgan atamalarni tarix, matematika, botanika sarlavhalari ostida yozib chiqing", 542-mashqda "Matematika faniga oid bo'lgan tenglama atamasiga berilgan ta'rifni o'qing. Shu asosda tub son, murakkab son, aylana, doira, qoldiq, atamalariga ta'rif bering", 562-mashq uyda bajarish uchun mo'ljallangan "Ingliz tili darsligingizda berilgan lug'atdan so'zlarni daftaringizga ko'chirib yozing. Ularning lug'atda joylashtirilishiga diqqat qiling Shunga o'xshash topshiriqlarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Darslikda berilgan sintaksis va morfologiya bo'limlarini o'rganishda integratsiyadan foydalanish mumkin. Darslikdagi sintaksis mavzusiga doir bir qancha topshiriqlarni morfologiyaga oid topshiriqlar berish orqali integratsiyalash mumkin.

Fikrimizning dalili sifatida darslikdagi "To'ldiruvchini hokim bo'lakka bog'lovchi vositalar" mavzusidagi yangi ma'lumot berishga mo'ljallangan 40-dars bayonida integratsiya ya'ni morfologiya bo'limida olingan bilimlarga bog'lash asosida bayon qilinadi. Buni esa quyidagicha tushuntirish mumkin. O'qituvchi mavzuni tushuntirishdan oldin kelishik qo'shimchalari va ko'makchilar haqida ma'lumotlarni berishi kerak. Bular esa savol-javoblar asosida beriladi.

1. O'zbek tilida nechta kelishik bor?

2. Qaysi kelishiklarning qo'shimchasi bor?.

Tartib bilan sanab bering. So'ngra mustaqil so'zlardan keyin qo'llanuvchi bilan uchun, sari, haqida kabi so'zlar ko'makchi hisoblanishini yozib tushuntiriladi. Va darslikda berilgan grammatik qoida bayon qilinadi. Demak, to'ldiruvchi hokim bo'lakka kelishik qo'shimchalari va ko'makchilar yordamida bog'lanadi. Faqat

qaratqich kelishigi -ning qo'shimchasi bilan to'ldiruvchining bosh (hokim) so'zga bog'lanmasligi ta'kidlanadi. Bu bog'lanish Ikki ustuncha shaklida yozib qiyoslanadi.

Kelishikli bog'lanish

Kitobni o'qidi

Kitobga qaradi

Kitobda ko'rgan

Kitobdan olgan

Ko'makchili bog'lanish

do'sti bilan bordi

kitob haqida suhbatlashdi

akam kabi bo'laman

Vatan uchun ishlaymiz

Misollardagi birikmalarning barchasida to'ldiruvchining tobe so'z bo'lib kelayotganiga o'quvchilar etibori qaratiladi. Ularni tobe qilgan narsa ana shu kelishik qo'shimchalari va ko'makchilar ekanligi aytiladi. Shuningdek, ko'makchilar o'zi bog'langan so'z bilan birga to'ldiruvchi bo'lishi va bir so'roqqa javob bo'lishi tushuntiriladi.

“Gap bo'laklari” mavzusini mustahkamlash uchun berilgan 116-mashqni quyidagicha bajarish mumkin.

1-topshiriq.O'qing.Ostiga chizilgan so'zlarga savol bering.

Bo'ron, Jala, Quyosh, Daryo o'zlarining zo'rliги haqidagi masalani yecholmay Odamzodning oldiga borishibdi.

- Hoy, Odamzod, qani ayt-chi, bizlarning ichimizda kimimiz zo'r?

- Senlardan ham ahillik, do'stlik zo'r, -debdi Odamzod.-Ular bor joyda senlar hech narsa emassanlar. Daryodan zo'r, jaladan kuchli, Bo'rondan qudratli, quyoshdan haroratli bu – ahillik, do'stlikdir! O'quvchilar Bo'ron, Jala, Quyosh, Daryo, Odamzod so'zlari nima? so'roqiga, senlardan so'zi kimlardan? Qudratli so'zi qanday?, ahillik, do'stlik so'zlari nima?, borishibdi so'zi nima qildi? so'roqlariga javob bo'lishini aytadilar.

2-topshiriq. Tagiga chizilgan so'zlarning va qaysi so'z turkumiga oidligini ayting.

O'quvchilar Bo'ron, Jala, Quyosh, Daryo, Odamzod ahillik, do'stlik so'zlarining ot so'z turkumiga, senlardan so'zi olmosh so'z turkumiga, qudratli so'zi sifat so'z turkumiga, borishibdi so'zi fe'l so'z turkumiga kirishini aytadilar.

3-topshiriq. O'quvchilarga berilgan Bo'ron, Jala, Quyosh, Daryo so'zlari nima uchun bosh harf bilan yozilganligini tusuntirish topshiriladi.

Bu topshiriqni bajarish jarayonida bunday so'zlar ot so'z turkumiga mansubligini va atoqli ot ekanlini va atoqli otlarning bosh harflar bilan yozilishini bilib oladilar.

Bunday topshiriqlarni darslikdagi yigirmatachatacha mashqni bajarish jarayonida qo'llash mumkinligining guvohi bo'ldik.

Darslikdagi morfologiyaga oid mashqlarda esa o'z navbatida sintaksisga oid bilimlarni integratsiyalash mumkin.

Darslikdagi "Kelishik qo'shimchalari" mavzusini mustahkamlash uchun berilgan **240-mashq** nuqtalar o'rniga mos otlarni qo'yib, so'z birikmalarini ko'chirish topshirilgan.

...onasi, ...bordi,... chiqdi, ...ko'chasi,...jo'nadi, ...intizomi,...kichik, ...o'qidi, ...javobi.

O'quvchilar quyidagicha so'z birikmalarini tuzadilar:Ilyosning onasi, maktabga bordi, Do'stlik ko'chasi, ishga jo'nadi, maktab intizomi, ukamdan kichik, kitob o'qidi, o'quvchining javobi.

2-Topshiriq. So'z birikmalari ishtirokda gaplar tuzish topshiriladi.

1.Ilyosning onasi maktabda ishlaydi.2.U ertalab maktabga bordi. 3.Mening o'rtog'im Do'stlik ko'chasida yashaydi.4.Dadam hozir ishga jo'nadi. Maktab intizomi hamma o'quvchi uchun bir. 5.Nodirbek ukamdan kichik.6.Zilola tinmay kitob o'qidi. O'quvchining javobi ma'qul keldi.

3-Topshiriq. Yozgan gaplaringizning ega va kesimini aniqlab, tagiga chizing.

1.Ilyosning onasi maktabda ishlaydi.2.U ertalab maktabga bordi. 3.Mening o'rtog'im Do'stlik ko'chasida yashaydi.4.Dadam hozir ishga jo'nadi. Maktab intizomi hamma uchun bir.5.Nodirbek ukamdan kichik.6.Zilola tinmay kitob o'qidi. O'quvchining javobi o'qituvchiga ma'qul keldi.

Bunday misollarni darslikdagi “**Yordamchi soʻzlar**” mavzusini mustahkamlash uchun berilgan **288-mashq**ni bajarishda ham sintaksis bilan integrasiyalanadi.

1-Topshiriq. Soʻzlarni oʻrni-oʻrniga qoʻyib, gaplar tuzing. Ularni mustaqil va yordamchi soʻzlarga ajrating.

1. Dadam, dehqonchilik, shugʻullanadi, bilan, mening. 2. Bugʻdoy, sholi, paxta, va, ekadi, u. 3. Eʼzozlang, u, chunki, yerni, boqadi, bizni.

1. Mening dadam dehqonchilik bilan shugʻullanadi.

2. U bugʻdoy, sholi va paxta ekadi.

3. Yerni eʼzozlang, chunki u bizni boqadi.

Mening, dadam, dehqonchilik, shugʻullanadi,

u, bugʻdoy, sholi, paxta, ekadi,

yerni, eʼzozlang, bizni, boqadi soʻzlari mustaqil, bilan, va, chunki soʻzlari esa yordamchi soʻzlar ekanligini aytadilar.

2- Topshiriq. Gaplarning ifoda maqsadiga koʻra turini ayting.

Oʻquvchilar berilgan gaplarning barchasi darak gap ekanligini aytadilar

3- Topshiriq. Gaplarning qaysi boʻlak ekanligini aniqlab tagiga chizish topshiriladi.

1. Mening dadam dehqonchilik bilan shugʻullanadi.

2. U bugʻdoy, sholi va paxta ekadi.

3. Yerni eʼzozlang, chunki u bizni boqadi.

Yuqoridagi kabi darslikda berilgan yigirmaga yaqin mashqlarni integratsiyalash asosida bajariash mumkin.

2.2 Integratsiyalashgan darslarda grammatik oʻyinlardan foydalanish.

Respublikamiz xalq taʼlimi oldida turgan asosiy vazifa har tomonlama kamol topgan sogʻlom, qobiliyatli, oʻz Vatani va xalqiga sodiq insonlarni tarbiyalash va ularni voyaga yetkazishdan iboratdir. Bu ulugʻ maqsadni roʻyobga chiqarish xalq taʼlimi tizimiga qarashli barcha xodimlar va keng oʻqituvchilar ommasidan oʻz ishiga ijodiy yondashish, har bir ishda yuksak samaradorlikka erishish xilma-xil metodik usullarni oʻylab topish hamda uni maktab hayotiga tadbiq etishni talab

qiladi. Bugun maktablarda ta'lim olayotgan o'quvchilar ilm-fan, texnika taraqqiyoti erishgan bir qator yutuqlardan bahramand bo'lgan ma'lum darajada bilimli kishilardir.

O'quvchiga bilim berish, har bir dars mazmunini boyitish, qiziqarli mashg'ulotlarni dars jarayoniga singdirishni talab qiladi. Ruhshunoslarning aniqlashicha bolalar o'qituvchining oddiy tushuntirishi orqali egallab olgan ma'lumotlarga qaraganda turli xil ruhiy kechinmalar orqali o'zlari mulohaza yuritib mustaqil bajargan ishlari vositasida o'zlashtirilgan bilimlarini uzoq esda saqlab qoladilar. Chunki o'quvchi mustaqil mashqlarni bajarishda faoliyat ko'rsatib, ilgari olgan bilimlariga tayangan holda ko'plab o'quv materiallarini hayolidan o'tkazadi. O'xshash hodisalarni taqqoslaydi. O'zicha mulohaza yuritib mustaqil hukm chiqaradi. O'qituvchilarning tayyor holda bergan ma'lumotida esa o'quvchi fikrlash faoliyati to'la ishga kirishmasdan to'g'ri javobni o'zlashtirib oladi. O'xshash hodisalarga duch kelishi bilan o'qituvchi bergan bilimni amaliyotga taqbiq qilishda qiynalib qoladi. Davlat ta'lim standarti va amaldagi maktab dasturlarida o'quvchi egallashi lozim bo'lgan materiallar ancha murakkab bo'lib, bolalarning bu bilimlarni bosqichma-bosqich egallab olishlarini, kengaytirib va rivojlantirib borishlarini taqozo etadi.

Bugungi Davlat ta'lim standarti va ta'lim tizimi o'qituvchilar oldiga o'ta mas'uliyatli vazifalar yuklamoqda. Muallim har bir o'tilayotgan darsga ijodiy yondashishi, mashg'ulotlarni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida qurishi, darsning har bir minutidan unumli foydalanishi zarur. Mashg'ulotlarni shunday tashkil etish kerakki, o'quvchi har bir dars davomida egallashi lozim bo'lgan bilimlar hajmini, o'zida hosil qiladigan ko'nikma va malakalarni oldindan belgilab olishi lozim. Bu o'z navbatida o'quvchining mashg'ulotlarga aniq maqsad bilan qatnashishini taqozo qiladi. Chunki o'quvchi darsning oxirida belgilangan maqsadga erishganligini bilish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur.

Bola dunyoga kelishi bilan ota-ona va qarindosh-urug'lari kundan-kun o'sib borayotgan yosh inson faoliyatida odamlarga xos har xil harakatlarni ko'rgisi keladi

va tez orada bu orzularining ro'yobga chiqayotganligining guvohi bo'ladi. Dastlabki davrlardan boshlab ona o'z bolasining qo'l-oyoq va gavda harakatlarini o'yin sifatida shakllantiradi. Keyinchalik bolaning butun faoliyati o'yin bilan bog'liq bo'ladi. Asta-sekin o'yin yosh bola hayotining asosiy mashg'ulotiga aylanadi. O'yin bolani aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyalash vositalaridan biridir. Bolalar o'yinlari yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. O'yin vaqtida bolaning sezgi va idroki, tafakkur va xayoli, xotira va diqqati, iroda va hissiyoti kabi ruhiy jarayonlari ishtirok etadi.

O'yinlar bolalarda jamoatchilikni his etish, intizomli bo'lish, jasur, qat'iyatli bo'lish, qiyinchiliklarni yenga bilish kabi sifatlarning tarkib topishida yordam beradi. Bola kattalarning kundalik hayotiy faoliyatidagi yumushlarni o'yin orqali bajarishga intiladi. Garchi bolalar o'yinlari mazmunan kattalar faoliyatining bir ko'rishi bo'lsa-da, uning o'ziga xos jihatlari bor. Birinchidan, bola o'yinni o'z xohishi bilan erkin va ijodiy bajaradi. Bu o'yinlar emotsional bo'lib, bolani o'ziga rom qilib oladi. Bola o'yinga qiziqib ketadi, zavqlanadi, o'rtoqlik hissi kuchayadi. Bolalar o'yinlari mazmuniga ko'ra o'yinchoqli, harakatli va didaktik turlarga bo'linadi. Bu o'yinlarning barchasi bolalarni faoliyat yuritishga chorlaydi. Didaktik o'yinlar esa bolaga ta'lim berishga qaratilganligi bilan ajralib turad.

Didaktik o'yinlar maktab o'qituvchilari tomonidan ijod qilingan. Bu o'yinlar katta maktab o'quvchilariga mo'ljallanadi. O'yin orqali bola jamoani tushunadi. O'zi bajarayotgan mashg'ulotga nisbatan ongli munosabatda bo'ladi. Har bir mashg'ulot jarayonida ixtiyoriy diqqatini ishga soladi. O'yinda ilg'orlikka, g'alaba qozonishga intiladi. Maktab bola hayotida juda muhim o'rin turadi. Shu davrda u atrof-muhit, jamiyat va kishilar mehnati, maktab-maorif haqidagi bilimlarni egallaydi. Kecha o'yin bilan band bo'lib, erkin faoliyat ko'rsatib yurgan bolaning birdan maktabning ichki qonun-qoidalariga moslashishi, belgilangan tartib asosida mashg'ulotlarga o'z vaqtida qatnashishi oson kechmaydi. Shu tufayli kichik maktab yoshidagi bolalar o'yin bilan bog'liq darslarda juda faol qatnashadi. Biz o'qituvchilar buni hisobga

olib, darslarga o`yin elementlarini kiritishimiz va undan ta`lim-tarbiyaviy maqsadlarda samarali foydalanishimiz lozim.

Grammatik o`yinlarni o`tkazish usullari xilma-xil bo`lib, uni maktab o`qituvchilari mukammal egallab olishlari va o`quvchilarning o`zini shunga o`rgatish zarur. Grammatik o`yinlar til materiallarini o`rgatishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Bu o`yinlar bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Grammatik o`yinlar bolalarda mustaqillikni tarbiyalaydi. O`quvchilarni tez o`ylashga, mustaqil fikrlab javob berishga, zehni bo`lishga, har bir ishda tashabbus ko`rsatishga undaydi. Faoliyat ko`rsatishga chorlaydi. Bu mashg`ulotlar bolalarning diqqatini bir yerga to`playdi. O`quvchilarda sog`lom musobaqa ruhini tug`diradi. Bunday didaktik o`yinlar va ularda berilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida o`quvchilarda jamoa bilan ishlash, o`ziga va o`z jamoasiga hamda o`zgalarga hurmat-e`tiborda bo`lish xislatlari shaklanadi. O`yin jarayonida ularning muomala madaniyatida ijobiy munosabatlar tarkib topadi. Bu o`yinlar o`quvchilarni faollik ko`rsatish, topqirlik, fahm-farosatli bo`lishga, dars jarayonida olgan nazariy bilimlarini amaliyotga taqbiq eta olishni talab qiladi.

Grammatik o`yinlarni tashkil qilish ham bir qator metodik omillarni hisobga olishni taqozo etadi. Bu usulni dars jarayoniga tadbiq etar ekan o`qituvchi har bir mavzuga, uning mazmuniga ijodiy yondashishi zarur. Yana bir muhim tomoni grammatik o`yinlarni uyushtirishda sinf o`quvchilarining xususiyatlari ham hisobga olinishi kerak. O`quvchilarning o`zlashtirish darajasi, qaysi sinfda o`qishi va o`rganilgan mavzularni hisobga olish va mashg`ulot mazmunini ana shu ko`rsatkichlarga qarab tuzish grammatik o`yinlarning samarali uyushtirilishiga ijobiy ta`sir qiladi. O`rganilayotgan grammatik tushunchalarni tez va mustahkam o`zlashtirib olish imkonini beradi. Grammatik o`yinlar grammatikaning qaysi bo`limi yuzasidan o`tkazilishiga qaramay, ular tasodifan bo`limasligi kerak. O`qituvchi unga ham darsga tayyorgarlik ko`rganday puxta hozirlik ko`rishi lozim.

Har qanday grammatik o`yin uyushtirilar ekan unga bolalar tayyor bo`lishlari kerak. Aks holda bola bajarilishi rejalashtirilgan ishning mazmunini tushunmagan

holda unga kirishadi. O'zi lozim ko'rgan yo'nalishda ishga kirishadi. Bu holat o'quvchining intellektual holatini o'stirmaydi. Bolani chalg'itib qo'yadi. Agar o'yinga bir necha bor shunday kirishilaversa, bunday mashg'ulot zerikarli bo'lib qoladi va oqibatda bolaning bilish faoliyatiga aks ta'sir qiladi. Uning oldini olish maqsadida o'quvchilarga beriladigan har bir topshiriqning mazmuni to'liq tushuntirilishi, o'xshash misollar bajarib ko'rsatilishi, namuna berilishi lozim. Grammatik o'yinlar bolalarning bilim darajasiga qarab murakkablashtirilishi yoki soddalashtirilishi mumkin. Buni o'qituvchining o'zi belgilaydi. Bolalarga fonetikadan so'zning oxiriga bir tovush qo'shib yangi so'z hosil qilish o'yini o'tkazilganda so'zga qo'shilgan tovushni so'zning tarkibi bo'yicha tahlil qilish topshirilsa o'yin murakkablashadi. Berilgan so'zlar ishtirokida gap tuzish o'yini o'tkazilganda ishni qaysi so'zdan boshlab ko'rsatilsa o'yin soddalashtiriladi. O'yinni soddalashtirish yoki murakkablashtirishni o'qituvchining o'zi o'ylab ko'rishi lozim. O'yinga bir-ikki nafar bolaning faol qatnashishi bilan chegaralanib qolmaslik zarur. Unga o'quvchilarning aksariyat qismi, iloji bo'lsa hammasi faol qatnashishi kerak. Chunki o'yin bolalarni jamoatchilik ruhida tarbiyalaydi. O'yinlarni bolalar jamoa bo'lib bajarar ekan, uning barcha a'zolari faol qatnashgandagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Bu mashg'ulotda barcha o'quvchi bir maqsad yo'lida harakat qiladi. Hamma g'olib bo'lishga intiladi. Bunday holat har bir o'quvchining ma'suliyatini oshiradi.

Javob berayotgan o'quvchi o'z guruhining ishonchini oqlashga harakat qiladi. Noto'g'ri javob bersa, bolalar oldida o'zini noqulay sezadi. Ayrim hollarda o'zini o'zi koyiydi. Keyingi o'yinlarga puxta hozirlik ko'radi. Bunday mashg'ulotlar bolalarni ko'proq o'qishga chorlaydi. G'oliblik nashidasini birgalashib surishga undaydi.

O'yinda kimdir mag'lubiyatga uchraydi. Bu tabiiy hol. Shuning uchun o'yin bellashuvlar bolalarni yana bir xislatga - mag'lubiyatni tan olishga o'rgatadi. Bu esa bola tarbiyasida juda muhim. Ba'zan o'quvchilar orasida o'z mag'lubiyatini tan olmay, kimdandir kamchilik axtarishga, hakamlarni "sotilgan"likda ayblashadi.

Maktab hayotida bunday voqealar tez-tez uchrab turadi. Bunday holatda o'quvchiga yotig'i bilan tushuntirishdan zerikmaslik lozim. Bir-ikki marta shunday munozaradan keyin o'yin mashg'ulotlarini to'xtatib qo'ymaslik kerak.

Bu o'yinni bir so'z turkumi doirasida o'tkazish ham mumkin. Ot so'z turkumiga oid atoqli va turdosh otlar o'rtasida, rang-tus sifatlari va maza-ta'm sifatlari orasida ham o'tkazish mumkin.

O'z so'zingni top o'yini

Sinf o'quvchilari ikki guruhga bo'linadi. Har bir guruhdagi bolalar berilgan matndan o'qituvchi bergan topshiriqqa oid so'zlarni tanlab oladi. Birinchi guruhdagi o'quvchilar matndagi ot so'z turkumiga oid so'zlarni, ikkinchi guruhdagilar sifat so'z turkumiga oid so'zlarni tanlab yozadi. Buning uchun o'qituvchi so'zlar yozilgan ko'chma doska yoki kartonni bolalarga ko'rsatadi. Har ikkala guruh ham ishga tushib ketadi, Qaysi guruh o'quvchisi tez va to'g'ri bajarsa o'sha guruh g'olib hisoblanadi va rag'batlantiriladi.

So'zlar: Kartoshka, shirin, parta, baland, olma, katta, qora, kichik, tuzli, o'rik, ko'rkam, nordon, kitob, yoqutday, daftar, ko'k, bodring, achchiq, paxta, pilla, taxir, qalam, ruchka, do'ppi, bo'r, totli.

1-guruh

ot so'z turkumiga oid so'zlar

1. kartoshka

2. parta

3. olma

4. o'rik

5. kitob

6. daftar

7. bodring

8. paxta

9. pilla

2-guruh

sifat so'z turkumiga oid so'zlar

1. shirin

2. baland

3. katta

4. qora

5. kichik

6. tuzish

7. ko'rkam

8. nordon

9. yoqutday

10. qalam

11. ruchka

12. do`ppi

13. bo`r

10. ko`k

11. achchiq

12. taxir

13. totli

Agar o`quvchilar o`yinni to`g`ri bajarishsa har bir guruh o`n uchtdan so`z topishadi.

O`yinning ikkinchi varianti

O`quvchilarda so`zning lug`aviy ma`nosiga qarab ma`lum turlarga ajratish ko`nikmasini shakllantirilishi uchun ushbu o`yin o`tkaziladi. O`qituvchi sinfning oldingi qismidagi stolga 15-20 kartochni yozib qo`yadi. O`quvchilar xattaxtaga chiqariladi. Ular har bir xattaxtaga o`qituvchi tomonidan yozib qo`yilgan mavzulardan birini tanlaydi.

1. Polizga oid so`zlar
2. Sinfga oid so`zlar
3. Sportga oid so`zlar.

O`quvchilar kartochnidagi so`zlarni o`qib, o`zlariga keraklilarini tanlab oladi. Bunday o`yin o`quvchilarni so`zning asosiy belgisiga qarab turlarga ajratishga o`rgatadi.

1. Polizga oid so`zlar: qovun, sabzi, bodring, karam.
2. Sinfga oid so`zlar: kitob, xattaxta, parta, bo`r, daftar, jurnal.
3. Sportga oid so`zlar: futbol, o`yingoh, yugurish, to`p, zarba, gol.

G`alaba cho`qqisi o`yini

Bu o`yinni o`tkazish uchun ikki o`quvchi xattaxtaga chiqariladi. Ularning har biriga bittadan unumli so`z yasovchi qo`shimcha beriladi. O`quvchilarning berilgan yasovchi qo`shimcha yordamida belgilangan miqdorda so`z tuzishi va xattaxtaga yozishi talab qilinadi. Bu o`yinni ot, sifat, fe`l so`z turkumlari o`tilganda uyushtirish mumkin. Ot so`z turkumini o`rganish jarayonida o`yinni quyidagicha uyushtirish mumkin.

G'alaba cho'qqisi.

-zor qo'shimchasi.

10. uzumzor

9. bog'zor.

8. limonzor

7. shaftolizor

6. sholizor

5. olmozor

4. o'rikzor

3. bedazor

2. gulzor

1. lolazor

-dosh qo'shimchasi.

10. elkadosh

9. vatandosh

8. qishloqdosh

7. maktabdosh

6. uyadosh

5. kursdosh

4. o'lkadosh

3. yo'ldosh

2. sinfdosh

1. sirdosh

Bo'g'inlardan gap tuzish o'yini.

Bu o'yinni uyushtirishda o'quvchilarga bo'g'inlar beriladi. Tavsiya etilgan bo'g'inlar ishtirokida so'z va gaplar tuziladi. Ushbu o'yinni uyushtirishda bo'g'inlar majmuasini butun sinfga tavsiya etish ham mumkin. Bolalarning qiziqishlarini oshirish maqsadida o'quvchilarni ikki guruhga ajratib har bir guruhga alohida bo'g'inlar beriladi. Qaysi guruh topshiriqni tez bajarsa o'sha guruh g'olib hisoblanadi. Bo'g'inlar albatta tartib bilan emas, aralash holda berilishi lozim. O'yinni soddalashtirish maqsadida ga'ni qaysi bo'g'indan boshlash alohida rangda ko'rsatiladi.

Topshiriqlar.

I.

o

ha

ish

char

ta

ish

Ish ishtaha ochar

II.

mi

bi

baxt

rar

lim

kel

Bilim baxt keltirar.

III.

bi

g'i

tab

mak

cho

lim

O`

-

Maktab – bilim o`chog`i.

IV.

o

bi

va

la

lo

lan

gul

na

bo

-

lan

bi

Ona bilan bola- gul bilan lola.

So`zlardan gap tuz o`yini

Bu o`yin ham “Kerak so`zni tanlab ol” o`yiniga o`xshaydi. Biroq kerak so`zini tanlab ol o`yinida so`z birikmasi tuzilsa ustida mashg`ulot o`tkazilsa, so`zlardan gap tuz o`yini berilgan so`zlardan gap tuzish bo`yicha grammatik o`yin o`tkaziladi. Har ikkalasida ham berilgan so`zlardan foydalaniladi. Gap tuzish o`yinida berilgan so`zlardan bir guruhi albatta harakat bildirgan (fe`l)so`zlar bo`lishi zarur. Chunki har qanday gapni ham shakllantirish markazi kesimdir. Kesim esa ko`pincha fe`l so`z turkumi orqali ifodalanadi. Bu o`yinni ikkinchi sinfda shaxs, narsa- buyum, belgi va harakat bildiruvchi so`zlar o`rganilgandan keyin o`tkazish mumkin. O`yinni o`tkazish uchun xattaxtaga yoki ko`chma xattaxtaga ikki qator qilib quyidagi so`zlar yozib qo`yiladi.

qish

ko`kardi

bahor

tugadi

quyosh

boshlandi

qor

ochildi

maysalar

eridi

gullar

qizdirdi

O`yinning sharti: ushbu so`zlar ishtirokida birinchi qatordagi so`zlarga (otlarga) ikkinchi qatordagi so`zlardan mosini tanlab gap tuzing va tuzgan gaplaringizni daftaringizga yozib oling, berilgan so`zlar ishtirokida tez va to`g`ri gap tuzgan guruh g`olib hisoblanadi. O`quvchilarning bilim darajasini hisobga olib so`zlar sonini ko`paytirish mumkin. O`quvchilar taxminan quyidagi gaplarni tuzadilar.

Qish tugadi. Bahor boshlandi. Quyosh qizdirdi. Qorlar eridi. Maysalar ko`kardi. Gullar ochildi.

O`yinning ikkinchi varianti

Ushbu o`yinni uyushtirish uchun o`quvchilar uch guruhga bo`linadi. Har bir guruhga gap tuzish bo`yicha aniq topshiriq beriladi. So`zlar uch ustun tarzida yoziladi. Birinchi guruh o`quvchilari otlarni tanlaydi. Ikkinchi guruh o`quvchilari shu otga mos fe`l tanlab ega va kesimdan iborat sodda yig`iq gap tashkil qiladi, uchinchi guruh esa tuzilgan gapga uchinchi ustundan so`z qo`shib ikkinchi darajali bo`lak qo`shib gapni kengaytiradi, birinchi gap shu tarzda yozilgandan keyin birinchi ustundagi so`zlardan birini tanlash ikkinchi guruhga, uchinchi gapni tuzishda birinchi ustundan so`z tanlash navbati uchinchi guruhga beriladi. Shu tariqa gaplar yoziladi. Qaysi guruh o`ziga berilgan topshiriqni to`g`ri bajara olmasa oldingi guruh gapni to`ldirib o`qiydi va qo`shimcha ravishda bitta ballga ega bo`ladi. O`yin shu tarzda davom etadi. Buning uchun o`quvchilar 3,6,9 gap tuzishlari lozim. Chunki har bir guruhning bajargan vazifasi o`zaro teng bo`ladi.

So`zlar

kitob	chiqdi	qiziq
Ish	o`qidim	dalada
quyosh	boshlandi	qizarib
hamma	yig`ildi	maktabga
ota-onalar	keldi	Toshkentda
Dilrabo	xursand bo`ldi	o`quvchilardan

O`quvchilar gaplarni taxminan quyidagicha tuzishadi.

1. Kitobni o`qidim.- Qiziq kitobni o`qidim.
2. Ish boshlandi.- Dalada ish boshlandi.
3. Quyosh chiqdi.- Quyosh qizarib chiqdi.
4. Hamma xursand bo`ldi.- Hamma o`quvchilar xursand bo`ldi.
5. Ota –onalar yig`ildi.- Ota- onalar maktabga yig`ildi.
6. Dilrabo keldi.- Dilrabo Toshkentdan keldi.

Bunday o`yin o`quvchilarning olgan bilimlarini amaliyotga qo`llash imkonini beradi. Ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatini o`stiradi.

“Begona so`zni top” o`yini

Ushbu o`yin so`zning lug`aviy ma`nosiga e`tibor berishga undaydi. O`quvchining xotirasini mustahkamlaydi. Tez o`ylab, tez javob berishga odatlantiradi. Uni har xil mavzularda o`tkazish mumkin. Bunday o`yinni o`tkazganda bir xil umumiylikka ega bo`lgan so`zlar tanlanadi.

1. Toshkent, Andijon, Qarshi, Termiz, Boku. (Begona so`z Boku. Hamma shaharlar O`zbekistonda, Boku esa mamlakatimizdan tashqarida joylashgan).
2. Oybek, Hamid Olimjon, Bobur, Gafur G`ulom, Komil Yashin. (Begona so`z- Bobur. Hammalari XX asrda yashab ijod etgan, Bobur esa mumtoz adabiyot vakili).
3. Avtobus, mashina, traktor, samolyot, mototsikl (Samolyot-begona so`z. Boshqalari yerda yuradi. Samolyot esa ko`kka `arvoz qiladi).
4. Ot, sifat, son, olmosh, kesim, fe`l. (kesim so`zi begona. Hamma so`zlar so`z turkumlarini bildiradi. Kesim so`zi gap bo`lagidir).

“So`zning o`rnini top” o`yini

Atoqli otlarning bosh harf bilan yozilishi haqidagi o`rganilgan qoidalarni mustahkamlash maqsadida ushbu o`yin o`tkaziladi. O`yin orqali kishilarning ismi va familiyasi, o`rin-joy nomlarining bosh harf bilan yozilishi mustahkamlanadi. O`yinni o`tkazish oldidan o`quvchilarga kartochkalar beriladi. Kartochkalarda she`riy parcha

yoki gap yozilishi mumkin. Maskur matndagi bosh harflar bilan yoziladigan soʻzlar tushirib qoldiriladi.

Oʻquvchiga yana ikkinchi kartochka beriladi. Unda tushirib qoldirilgan soʻzlar yozilgan. Oʻquvchi tushirib qoldirilgan soʻzlarni gapning mazmuniga qarab nuqtalar oʻrniga qoʻyishi va oʻqishi kerak. Tushirib qoldirilgan soʻzni toʻgʻri qoʻyib oʻqigan bola oʻyin gʻolibi hisoblanadi.

1.-kartochka

... birinchi boʻlib ona tilida

... (besh doston) yozdilar. U.... tugʻilgan.

Tushirib qoldirilgan soʻzlar: “Hamsa” Hirotida, Alisher Navoiy

2.-kartochka.

... oʻn ikki yoshida otasining taxtiga oʻtirdi ... nomli asar yozdi. U ... vafot etdi.

Tushirib qoldirilgan soʻzlar: “Boburnoma” Bobur, Hindistonda.

Oʻquvchilar bir-ikki marta oʻyinga qatnashib, maʼlum darajada koʻnikma hosil qilishgandan keyin har ikkala kartochkaga ham boshqa soʻzlarni aralashtirib kiritish mumkin. Baʼzan har ikkala kartochkada tushirilgan soʻzlarni bir xil kartochkaga yozsa ham boʻladi. Bu oʻquvchini kerakli atoqli otni tanlab olishga oʻrgatadi. Qaysi oʻquvchi topshiriqni tez, toʻgʻri bajarsa oʻyin gʻolibi boʻladi va ragʻbatlantiriladi.

Bunday oʻyinni umuman tushirib qoldirilgan soʻzlarni oʻz oʻrniga qoʻyib oʻqish tarzida uyushtirish mumkin. Oʻyinni bajarish davomida bolalar soʻzning maʼnosiga eʼtibor berishadi. Quyida ikki banddan iborat sheʼrlar berilgan, uning ikkala bandi ikki oʻquvchiga beriladi. Tushirib qoldirilgan soʻzlar har ikkala kartochkada ham toʻliq beriladi. Oʻquvchi kerakli soʻzni tanlab oladi.

1-kartochka

2-kartochka

Boychechak

Muhammadjon Qoʻshoqov sheʼri.

U ochildi ... chogʻida

Qarab tursam, u gunafsha,

Erka chechak, oy chechak.

. . . ham suluvroq.

. . . deb ataladi,

. . . keldi deb chorlovchi,

Gullar ichra kelinchak.

Go`yoki . . . qo`ng`iroq.

Tushirib qoldirilgan so`zlar: Loladan Boychechak, jajji, tong bahor.

Mehmon

Ollobergan Po`lat she`ri

1-kartochka

Bog`da... dugona

Hulkar bilan... .

Ikkalasi o`tirib,

. . .mehmon-mehmon.

2-kartochka.

patnis bezadi.... ,

Olma,, konfet qo`yib.

O`yin bahonasida

Zeboxon.... to`yib.

Tushirib qoldirilgan so`zlar: inoq, o`ynadi, oldi, nok, Zeboxon, Hulkar.

O`quvchilar ushbu o`yinni quyidagicha bajaradilar.

1-kartochka

2-kartochka

Boychechak

Muhammadjon Qo`shoqov she`ri.

U ochildi tong chog`ida

Erka chechak, oy chechak.

Boychechak deb ataladi,

Gullar ichra kelinchak.

Qarab tursam, u gunafsha,

Loladan ham suluvroq.

Bahor keldi deb chorlovchi,

Go`yoki jajji qo`ng`iroq.

Mehmon

Ollobergan Po`lat she`ri

1-kartochka

Bog`da inoq dugona

Hulkar bilan Zeboxon.

Ikkalasi o`tirib,

O`ynadi mehmon-mehmon.

2-kartochka.

Patnis bezadi Hulkar ,

Olma, nok, konfet qo`yib.

O`yin bahonasida

Zeboxon oldi to`yib.

O`yindan o`yin o`ylab topish o`yinini bajarish.

-rabot va -obod qo`shimchali so`zlar yozish o`yini.

- | | |
|--------------|---------------|
| 1.Xayrabot | 1. Yangiobod |
| 2.Qo`shrabot | 2.Xalqobod |
| 3.Toshrabot | 3.Chinobod |
| 4.Oqrabot | 4. Dehqonobod |
| 5.Xotinrabot | 5.Hayitobod |

Tilsim o`yini

Tilsim o`yini bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini o`stiradi.Bu o`yinda sodda gaplarning, ba`zan qo`shma gaplarning andazasi beriladi. Gapni tashkil etishda ishtirok etayotgan har bir so`zning necha harfdan iboratligi va qaysi tovush bilan boshlanishi ko`rsatiladi. O`quvchilar gapning sxemasini kuzatib har bir so`zning birinchi tovushini bir necha bor ichda o`qiydi. Qolgan tovushlarni topgach gap tarkibidagi so`zlarni berilgan andoza bo`yicha to`ldiradi.

o	l	t	i	n
o				
o				
o				

o				
o				
e				

Yuqorida berilgan gapda o`zbek xalq maqollaridan biri yashirilgan. Oquvchilar o`qitilgan maqollarni eslab ushbu maqolni topadilar. Agar o`quvchilar maqolning javobini topishga qiynalsalar har bir so`zning oxiridagi harflarni ham ko`rsatib qo`yish yoki birinchi so`zni to`liq yozib ko`rsatish mumkin. Bir necha marta bu o`yinni takrorlangandan keyin o`quvchilar topishmoqlarni tez topa oladigan bo`ladi. Yana bir tomoni har bir so`zning necha tovushdan iborat ekanligini aniq belgilab oladi. O`quvchilar yuqoridagi maqolni quyidagicha yozadi.

Oltin olma, olqish ol,

Olqish oltin emas?

5–sinfning adabiyot darsligidan oʻzbek xalq maqollari oʻrin olgan. Oʻquvchilar ularni ushbu oʻyin orqali oʻzlashtirib oladi. Bu oʻyinni gapning maqsadga turlarini oʻzlashtirish jarayonida ham, maʼlum bir gap boʻlagini oʻrganish jarayonida qoʻllash mumkin. Guruhlar oʻrtasida oʻyin oʻtkazilganda darsliklarda berilgan maqollardan foydalanish mumkin.

Oʻyinning sharti:Maqollarni toping. Gapning mazmuniga koʻra turini aniqlang.

1.

d			t	s						t						
---	--	--	---	---	--	--	--	--	--	---	--	--	--	--	--	--

T					b	b						q					
---	--	--	--	--	---	---	--	--	--	--	--	---	--	--	--	--	--

2.

b	I	l	a	g	i	z			b			Y				
---	---	---	---	---	---	---	--	--	---	--	--	---	--	--	--	--

b					i	z			m				y				
---	--	--	--	--	---	---	--	--	---	--	--	--	---	--	--	--	--

Oʻyinning sharti: maqollarni toping. Gapning egasini aniqlang.

1.

I	Ish	i						o				
---	-----	---	--	--	--	--	--	---	--	--	--	--

D						A	i					q				
---	--	--	--	--	--	---	---	--	--	--	--	---	--	--	--	--

2.

D																				
---	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

Oʻquvchilarining oʻzlariga ham oʻrganilgan maqollar yuzasidan gapning andozasini tuzib raqib guruhga berish tavsiya etiladi. Bunday oʻyinlarni topishmoqlar yuzasidan ham oʻtkazsa boʻladi.

Oʻyin uchun berilgan maqollarning javoblari.

1.Doʻst soʻzini tashlama,

Tashlab boshing qashlama

2. Bilagi zo`r bir yashar,
Bilimi zo`r ming yashar.

1. Ish ishtaha ochar,
Dangasa ishdan qochar.
2. Suvsiz hayot bo`lmas,
Mehnatsiz rohat.

SINTAKSIS VA PUNKTUATSIYA

1. “Soʻz birikmasi tuzing”

Bu oʻyin soʻz birikmasi mavzusidan keyin takrorlash jarayonida qoʻl keladi Hamda oʻquvchilarni mustaqil ishlashga jalb etadi. Ikkita soʻz beriladi, shu soʻzlarning tegishli raqamdagi harflar bilan boshlanuvchi soʻz birikmalari tuziladi.

Masalan: kitob bilim

- | | | |
|-----|-----------|---------|
| 1-1 | katta | bola |
| 2-2 | iqtidorli | ixtiyor |
| 3-3 | latofatli | toliba |
| 4-4 | oftobdek | issiq |
| 5-5 | bosh | maqola |

1-soʻzning 1 harfi 2-soʻzning 1 harfi bilan va shu kabi usulda ish olib boriladi.

2. “Koʻp soʻz qatnashtirib gap tuzish” Ushbu oʻyin oʻquvchilarning soʻz boyligi Hamda ulardan oʻrnida foydalana olish mahoratini oshiradi. Muallim tomonidan maʼlum bir mavzu beriladi va oʻquvchilar grammatik, mantiqiy bogʻlangan gap tuzadilar. Kim koʻp soʻz qatnashtirsa, oʻsha gʻolib.

Masalan: Bahor, “Navroʻz” va shu kabi mavzularni oʻquvchilar hukmiga havola qilish mumkin.

3. “Ismlardan gap tuzish”

O'yin o'quvchilarning zukkoligi asosiga qurilgan. Bunda ismlar o'qituvchi tomonidan aytiladi, o'quvchilar ularning bosh harflarini olib gap tuzadilar va o'qiydilar. Kim to'g'ri o'qisa, o'sha rag'batlantiriladi.

Masalan: Bobir, Umid, Karim, Ibrohim, Tolib, Olim, Bahrom

Bu - kitob. Shu usulda olib borildi.

Avval o'quvchi asta-asta aytib berish, so'ng murakkablashtirib borishi mumkin. U o'quvchilardagi ko'nikmalarni qanchalik egallanganliklariga bog'liq.

4. "Sxemaga gap tuzing"

Ma'lum bir sxema beriladi, o'quvchilar o'sha sxemaga gap tuzadilar.

Masalan: _____

Karim kitob o'qidi.

5. "Tinish belgisini qo'ying"

Gaplardagi ma'lum o'rinlardagi tinish belgilar tushirib qoldiriladi, o'quvchilar tinish belgilarini o'zni-o'ziga qo'yadilar. Bu bilan o'quvchilarning savodxonligini o'sadi.

O'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshrishda uy vazifalarining ahamiyati katta. Ba'zan darsning muhim bosqichlaridan biri bo'lgan uy vazifalariga jiddiy e'tibor berilmaydi. Umumta'lim maktablari uchun amaldagi «Ona tili» darsligidagi mashg'ulotlar deyarli bir xil qolipda berilgan, ya'ni mavzuni, grammatik qoidalarni mustahkamlovchi mashqlar, matn yaratish va badiiy asardan mavzuga oid gaplardan misollar keltirish. Bunday an'anaviylik o'quvchilarda uy vazifalariga bo'lgan e'tiborni, mas'uliyatni susaytiradi, demakki, fanga bo'lgan qiziqish ham pasayadi. O'qituvchi bu masalaga ijodiy yondashib, o'quvchilarning ijodiy salohiyatiga turtki bo'ladigan, ularni mantiqiy fikrlashga, yaratuvchanlik, ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishga asos bo'ladigan uy vazifalari,

topshiriqlarini tayyorlab kelishi zarur. Bu topshiriqlar ma'lum grammatik mavzu asosida yoki ijodiy topshiriq bo'lishi mumkin. Muhimi, vazifa noan'anaviy shaklda bo'lib, o'quvchilar bu topshiriqlarni sidqidildan qiziqib bajarishsin. Shunda o'quvchida kelgusi darsda rang-barang ijod namunalarini o'qishga oshiqishi, darsga bo'lgan qiziqishi kuchayib, dars samaradorligi ta'minlanadi. Quyida tajribamizda sinalgan ana shunday uy vazifalaridan namunalar keltiramiz.

«Fikrni davom ettiring» topshirig'i

Bu topshiriqda o'quvchilarga ma'lum fi kr berilib, uni mantiqan davom ettirish topshiriladi.

Ilmda cho'qqi yo'q, ammo...

– g'alaba bor, donolik bor.

– inson umrida boqiylik.

– ammo uning nurli man zillariga intilish naqadar yoqimli.

Yuz bema'ni kitob mutolasidan, bir nodonning suhbatini afzal, zero...

– nodon insonning so'zidan ham dono fi kr izlamoq, insonning fahmli ekanligidan dalolatdir.

Kitob o'qimagan kimsa...

– ilm bog'iga begona.

– ong-u tafakkurdan ayro jism kabitur.

Donishmanddan so'rashibdi: dono va nodonning o'rtasida qanday farq bor deb...

– Dono ilm o'rgatar,

Nodon qiliq o'rgatar.

Dono – bilim,

Nodon – zulm.

Dengiz qanchalik to'lib-toshmasin, daryo

suviga muhtoj...

– O‘quvchi qanchalik zehnli bo‘lmasin, ustoz
tarbiyasiga tashna.

«Mitti ishoralar»

Bu o‘yinda o‘quvchilar bir so‘zda ham falsafi y,
ham badiiy ma’no ifodalashlari kerak bo‘ladi.

Maqtanchoqlik – o‘z asirini adashtiruvchi
soya.

Eshik – manzil yaqinligini bildirib, qalblarga
iliqlik hadya aylovchi mash’al.

Tugma – libosning ikki yonini doimo birlashti-
rishga urinuvchi sovchi.

«So‘z o‘yini»

Bu topshiriqda so‘zning shakl va ma’no mu-
nosabatlari asosida she’riy satrlar ijod qilinadi,
so‘z o‘yinlaridan foydalaniladi.

Ba’zi vaqtlar arg‘amchiga madad bo‘lar qil,
Shunday ekan sen do‘stingga doim
yordam qil.

Bugun juda nurli bo‘lib chiqqan edi kun,
Chunki bugun yangi tongning fayzi edi kun.
Bulutlar ham to‘zg‘ib, ochilgandi ko‘k,
Quyosh nuri ila olam bo‘ldi ko‘k.

Bu payt shamol birozgina olmoqchiydi dam,
Endi havo dimligidan qaytar edi dam.

Tikmoqchi bo‘ldim bir kuni tugma,
Oyim dedi: «Ipni noto‘g‘ri tugma!».

Bordir bir qush laqabi mayna,

Bu haqda bilmasang qilishar mayna.

Ortiga ham qaramay yugurardi To‘xtasin,

Singlim dedi zorlanib: «Shoshmay tursin,

to‘xtasin!»

Mazali mevalardan biri bu olma,

Ammo uni aslo beruxsat olma!

«Qofi yadosh topishmoqlar»

Bu topshiriq o‘quvchining so‘z boyligini va

topqirlik salohiyatini oshiradi.

K dan boshlansam har on,

Qornim to‘la mis, liton.

N dan boshlansam agar,

Ulug‘ ne‘matman har gal.

(kon, non)

Ona tilida esga ol,

Meni derlar bo‘lak...

Qattiq X dan kelsam gar,

Mendirman yuzdagi...

(hol, xol)

G dan kelsam agar,

Men iforliman, qara.

K li bo‘lib qolsam gar,

Bo‘lib qolaman zarra.

(gul, kul)

T dan kelsam,

Yemishdirman tovuqqa.

S dan kelsam,

Rang, nurdirman quyoshga.

(tariq, sariq)

O‘ harfl idirman

Xayoling menman.

U harfi danman

Turar joyingman. (o‘y, uy)

Boshlansam T dan,

Qon o‘tar mendan.

Boshlansam P dan

Men tog‘lardanman. (tomir, Pomir)

«Alifboli topishmoq»

Ushbu topshiriq fonetika bo‘limini mustahkamlash, alifbo tartibini esda saqlash va ijodkorlikda qo‘l keladi.

A dan boshlansam agar shirin, totli ne‘matman.
(asal)

B dan boshlansam agar sitruslarda qimmatman.
(banan)

D dan boshlansam agar suvda insonlar do‘sti.
(delfin)

I dan boshlansam agar insonlarga qo‘riqchi.
(it)

J dan boshlansam agar polaponman men jajji.
(jo‘ja)

K dan boshlanganman-u bir kungina yashayman.
(kapalak)

L dan boshlansam agar bahorni qarshilayman.
(lola)

M dan boshlansam agar baroqvoy bir hayvonman.

(mushuk)

N dan boshlansam agar eng muqaddas ne'matman.

(non)

O dan boshlansam agar temirga boy mevaman.

(olma)

Bong, tong, zang so'zlarin bir bo'g'inda yozaman.

Yod oling ash'orimni

Alifbo tartibida.

Harflar ketma-ketligi

Esdan chiqmaydi sira.

«Raqamlar bo'ylab sayohat»

Mazkur topshiriq son so'z turkumini mustahkamlash, badiiy tasavvurni boyitishga yordam beradi.

Birinchidan siz o'ylang,

Shoshmay bamaylixotir.

Sonlarni boshlab berib,

Gerdayib turadi «bir».

«Ikki» degan son bordir,

U Ikkichiga yordir.

Dars qilmasang, albatta,

Ikki baho tayyordir.

Har tong turib, to'plab kuch,

Mashq qiling bir, ikki, uch.

Shunda sog'lom bo'lasiz,

Kuch-quvvatga to'lasiz.

Bilim bo'lsa bir oz mo'rt.

Senga hech ikkilanmay

Qo'yishadi yaxshi «to'rt».

Donolar do'st bo'ladi

Ustoz aqllilarga

«besh» bahoni qo'yadi.

Bu son kelishiklarning

Shakliga ham teng bo'lar.

Olti soni bahoda

Qiymati ham keng bo'lar.

Haftada bor yetti kun,

Ta'lim borasida ham

Maktab yoshi «yetti» da.

Sayyoralar yig'ilib,

Qo'shilsalar quyoshga.

Bu sanoq son qaysidir?

«Sakkiz» son kelar o'yga.

Har fasl gali kelib,

Ketayotgan vaqtda.

Bu son bilan faqatgina,

«to'qqiz» oydan o'tgach yana

Uchrashamiz shu vaqtda.

Bu sanoq sonimiz-chi,

Ikki xonali bo'lib,

Qarshimizda turar «o'n»

Kiyib olib yangi to'n.

«Ranglar falsafasi»

Bu topshiriqda o'quvchilar ranglarni falsafi y

idrok etib, ularni badiiy talqin qilishadi. Ushbu

topshiriqdan sifat, aniqlovchi mavzularini tahlil

qilishda foydalanish mumkin.

Oq rang – poklik timosli,
Sariq rang – quyosh nuridir,
Moviy rang – osmon tusidir,
Yashil – go‘zal bog‘ erur,
Oq rang – oppoq qor erur,
Qora rang – zulmat dog‘ erur.
Qizg‘ish rang – kun botishi,
Siyoh rang – tong otishi.
Dunyo shunday rang-barang,
Bu ranglarga bir qarang.

Bunday ko‘rinishdagi ijodiy uy vazifalari o‘quvchini insho, bayon, matn yaratishiga zamin hozirlaydi. O‘quvchida so‘zga mas’uliyat hissi paydo bo‘ladi, notiqlik mahorati oshadi va voqea hodisalarni badiiy idrok etish ko‘nikmalari shakllanadi. Zero, bugungi zamonaviy ta’limning maqsadi o‘quvchilarning ijodiy fikrlash ko‘nikmasini orttirish, fikrda ilg‘orlik hissini tarbiyalashdan iboratdir.¹

Umuman olganda, qanday didaktik o‘yinlardan foydalanish, qaysi usulda olib borish o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq. Har bir olib borgan harakatimiz o‘quvchilar bilimini boyitishga, mustaqil, erkin fikrlashini oshirishga xizmat qila olsa bas.

Mavzu: Kesim

Asosiy tushunchalar va atamalar:

¹ Usmanova.Ona tili darslaridanoan’anaviy uy vazifalari. Til va adabiyot ta’limi jurnali 2013-yil, 7-son

- kesim, gap markazi, nima qildi? (-di,-yapti, -moqchi), kimdir?, nimadir?, qayerdir? so`roqlari, shaxs-son ma'nosini ifodalash:

O`quvchilar o`zlashtirishi kerak bo`lgan bilim, ko`nikma va malaka:

- gap bo`laklari (bosh va ikkinchi darajali) ni bilish;
- gapning ega va kesimini aniqlay olish, kesimning shaxs-son qo`shimchalarini anglash;
- gapni sintaktik tahlil qila olish, so`roq berib, bo`laklarni aniqlash.

T/r	<i>Dars bosqichlari</i>
1	Tashkiliy ishlar
2	Uy vazifasi tahlili
3	Yangi mavzu bilan ishlash
4	Mustahkamlash: Bahs-munozara, boshqotirma
5	Uyga topshiriq

Darsning borishi. Uy vazifasining tahlili. «Men ardoqlagan fazilat» mavzusida tuzib kelingan matn saylanma tarzda o`qitiladi. Matnda qo`llangan gap bo`laklarini aniqlab, gapdagi vazifasini izohlaydilar. Tahlil jarayonida mustaqil tuzib kelingan matnning uslubiy saviyasiga, o`quvchilarning so`z tanlash qobiliyatlariga e`tibor qaratiladi. Shu o`rinda gap bo`laklarining klasteri tuziladi.

Yangi mavzu bayoni: O`quvchilardan ijodiy diktant olinadi.

Diktant matni: *Haqiqiy do`st sening tashvishlaringga sherik bo`ladi. Boshingga kulfat tushganda yordam beradi. Sen o`zingning sirlaringni, hech kim bilmaydigan ishlaringni o`zgalarga ishonmasliging mumkin, biroq do`stingga ishonasan.*


Diktant matnidan kim? nima qildi? so`roqlariga javob bo`luvchi bo`laklarni ajratib yozish topshirig`i beriladi.

Vaqtini iqtisod qilish, shuningdek o`zaro bellashuv muhitini yaratish maqsadida sinf o`quvchilari uch guruhga bo`linadi.

1-guruhga o`quvchisiman

2-guruhga o`quvchisisan

3-guruhga o`quvchisidir so`zlari yozdiriladi va bu so`zlar ishtirokida gaplar tuzish topshirig`i beriladi va o`zaro savol-javob yordamida topshiriq ijrosini bajarish mumkin. Shundan so`ng kesimga berilgan nazariy ta`rif bilan tanishib, umumiy xulosa chiqariladi va oquvchilar daftarlariga quyidagi chizmani kochirib oladilar.



Darsni mustahkamlash: Darslik bilan ishlash. Darslikdagi 118-, 119-mashqlarni bajarish bahs-munozara usuli orqali amalga oshiriladi. Shundan so`ng o`quvchilarga mustaqil va ijodiy fikrlash ko`nikmalarini rivojlantirish maqsadida boshqotirma beriladi. Agar boshqotirma to`g`ri yechilsa o`zbek xalq maqollaridan biri yuzaga keladi.

Boshqotirmadagi harflar o`z o`rniga qo`yilsa maqoldagi so`zlar hosil bo`ladi.

T	O`	D	I	E
G`	R	G	R	I

I	O`	T	O`	Z
Z	A	A	D	I

Uyga vazifa: «Dam olish kunida» mavzusida kichik hikoya yozish. Undagi gaplarda ishlatilgan kesimlarni izohlash.

O`quvchilarni amaliy ishga, hayotga tayyorlashda ona tili fani muhim ro`l o`ynaydi. Tilni o`rganish bilan o`quvchilarning zehni, aqli, ongi va madaniy darajasi oshadi, ularga o`zlarini o`rab olgan muhitni yaxshi tushunish imkoniyati tug`iladi. Ona tilini yaxshi o`rganmasdan turib, boshqa fanlarni o`zlashtirish qiyin.

Har bir yangi mavzuni o`tishda, uning xarakteriga mos tushuntirish usullari tanlash, darsning o`ziga mazkur mavzu yuzasidan o`quvchilarning bilim, malaka va ko`nikma hosil qilishlariga yordam beradigan mashq turlaridan foydalanish o`quvchilarning ona tilini o`rganishga bo`lgan qiziqishlarini oshiradi.

Umumiy xulosalar

O`zbekiston Respublikasi prezidenti I. A. Karimov Respublika Oliy Majlisi IX sessiyasida so`zlagan nutqlarida jamiyatimizning yangilanishi, taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirayotgan islohatlarimiz samarasi – zamon talablariga javob bera oladigan yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan bog`liqligini qayd etadi.

Ta`limdan asosiy maqsad bolalarga bilim berishgina emas, balki bilim olish yo`llarini o`rgatish, ularni ta`lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish demakdir. Biz bo`lajak o`qituvchilar ana shu masalaga e`tibor berishimiz zarur.

“Biz ajdodlarimizdan avlodlarga o`tib kelayotgan bebaho boyligimiz vorislari sifatida ona tilmizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur. Ayniqsa fundamental fanlar – zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank-moliya tizimi kabi o`ta muhim sohalarda ona

tilimizning qo'llanilish doirasini kengaytirish, o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish – milliy o'zlikni, Vatan tuyg'usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz” – deb, ta'kidlagan edi yurtboshimiz I. A. Karimov.

2000-yillar ta'lim sohasida davlat ahamiyatiga molik qator hujjatlar taqozosida ta'lim sohasida ham sezilarli o'zgarishlar bo'ldi. Bular sirasida o'quvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar aniq belgilab berildi. Shuningdek, har bir sinf uchun o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim va malakalarni aniqlashning nazorat ishlari shakllari yuzasidan o'quvchilar uchun maxsus tavsiyalar to'plami ,aniqrog'i, o'quv yilining har bir choragida o'tilishi majburiy standart sanalgan mavzuviiy reja va unga usuliy tavsiyalar paydo bo'ladi. Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi.Darsliklar yangilandi. Demak, ta'lim mazmuniga istiqbol taqozosidagi milliylik ,qadriyatlar ruhi ifodalangan matnlarga o'quv topshiriqlarida ustuvor o'rin berildi.

Dars jarayoni tadaris usuli, asosan beriladigan bilimning samaradorligini ta'minlashga qaratildi. Bu masalada 5-sinf o'quvchilariga beriladigan bilim, hosil qilinadigan malaka va ko'nikmalar nutqdan tilga tamoyiliga qat'iy amal qilgan holdagi turlicha topshiriqlarni bajarish jarayonida o'qituvchi-o'quvchi muloqoti asosida amalga oshadi. 5- sinfda ta'lim jarayonida morfologiya va sintaksis bo'limlarini o'rganishda integratsiyaning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi.Integratsiyalash ya'ni o'quv predmetlari va fanlar doirasidagi mazmunni integratsiyalab o'rganish orqali o'quvchilar tafakkurini o'stirish uchun imkoniyat, sharoit yaratib beradi va o'quvchi bilan individual ishlash va uni faollashtirishning muhim vositasi hisoblanadi.Bu esa o'quvchilarning fanga qiziqishini orttiradi.

Fan va ta'lim olamida integratsiyalashgan ta'lim xususida, uning mazmun-mohiyati haqida yangi fikrlar, qarashlar yuzaga kela boshladi. Ta'limning bunday shaklda tashkil etilishi ta'lim oluvchilarning keng qamrovli tarzda o'zlashtirishlarini,

mavjud tasavvur va dunyoqarashlari doirasini yanada mukammal mazmun bilan boyishini ta'minlaydi.

Aqlan yetuk, fikran teran, sog'lom fikr yurituvchi va ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan shaxsni tarbiyalash ta'limda yosh xususiyatlariga e'tiborli bo'lish, o'qitishda ta'limning barcha bo'g'inlararo aloqadorligini ta'min etish va shaxs ongi va tafakkurida yangicha g'oya, tasavvurlarni shakllanishiga imkon beruvchi zamonaviy faol usullardan foydalanishni talab etadi. Umumta'lim maktablaridagi ijtimoiy, gumanitar fanlar doirasida ta'limni noan'anaviy usullarini qo'llanilishi o'quvchi yoshlarning ijodiy tafakkurini shakllanishida, muloqot imkonini kengayishida, voqea-hodisalarga nisbatan baholashlari va qarashlarini shakllanishida va yana shuningdek, dars jarayonida vujudga kelgan qizg'in munozara va mantiqiy yechimlarni bevosita ishtirokchisi sifatida o'z faoliyatidan psixologik qoniqish hissini vujudga kelishida muhim ahamiyatga ega

Ona tili darslarining muayyan bosqichlarida, shuningdek, maxsus rejalashtirilgan bilimlarni mustahkamlash darslarining hamma o'quv topshiriqlarini didaktik xarakterdagi grammatik o'yinlar o'quvchilarning darsga – fanga qiziqishini kuchaytiradi, uladrning o'yin vositasida puxta bilim olishiga ko'maklashadi, malaka va ko'nikmalarini takomillashtiradi.

Adabioytlar:

1. I. Karimov “Barkamol avlod orzusi”, T. “Sharq”, 1999.
2. I. Karimov “Buyuk kelajak sari”. T. “O‘zbekiston”, 1999.
3. I. Karimov “Yuksak ma’naviyat egilmas kuch”. T. “Ma’rifat”, 2008.
4. Karimov I. A. O‘zbekiston XX1 asr bo‘lag‘asida. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998.
5. Karimov I. A. O‘zbekiston XX1 asrga intilmoqda. – Toshkent; O‘zbekiston, 2000.
5. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, -Talqin, 2005.
6. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 1999-yil 16 avgustdagi qaroriga ilova. Majburiy, minimal talablar. DTS 14-16-betlar
7. Y. Abdullaev, R. Safarova, A. Sayfullaev, R. Yo‘ldashev. Ona tili ta’limining maqsad va vazifalari. Davlat ta’lim standartiga sharh. (DTS 48-54 –betlar.)
8. Ona tili o‘qitish metodikasi.
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – M.: 1981 yil, 1-jild. 193-b.
10. To‘xliyev B., Inog‘omova R., Tilavova G. So‘z turkumlari va nutq o‘stirish metodikasi. – T.: 2008. 5-b.
11. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi Ona tili Adabiyot O'zbek tili (5 — 9 sinflar) TOSHKENT: 2010
12. Qo‘ldashev B. Ona tili va adabiyot darslarining o‘zaro integratsiyalashuvi. Andijon. 2006.
13. Usmanova D. Ona tili darslarida noa’anaviy uy vazifalari. Til va adabiyot ta’limi jurnali 2013-yil, 7-son
8. Yusupova Sh, Rejapova D. Integratsiyalashgan darslar tshkil etish metodikasi. Andijon. 2007
14. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” 5 jildlik, 2-jild Toshkent. 2006
15. Umarova .A. O‘yin musobaqa darsi “ Boshlang‘ich ta’lim -1992, 1-son , 48-bet

- 16.O'zbek tilining izohli lug'ati. –T. I - M.: Russkiy yazo'k, 1981.-B. 380.
- 17.Abdullayeva B.S.Fanlararo aloqadorlik turlari haqida // Uzluksiz ta'lim. –2005. -№1. - B.14.
- 18.Maxmudov,N,NurmanovA, Sobirov A,Qodirov V, Jo'rabayeva Z. Ona tili .Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinflari uchun darslik. Toshkent “Ma'naviyat”,.2010.
- 19.G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'lim mazmuni.-T.: O'qituvchi, 1995.-B. Sodiqova T. Yoningdagi baxt -T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. -B.3.
- 20.Ro'zimuhammad B. Buyuk shaxslar silsilasi // Ma'rifat. - 2002. -№26. -B.6.
- 21.Ziyomuhammadov B., Abdullaeva Sh. Ilg'or pedagogik texnologiya.-T.: Abu Ali ibn Sino, 2001.-B. 24-25.
- 22.Musayev U. Integratsiya darajalari // Xalq ta'limi. – 2002. - № 6.-B. 5-6.
23. Internet materiallari:
 - 1.www. tashiit. uz.
 2. www. press_ servise. uz.
 3. www. gov. uz.
 4. www. ziyonet. uz.

MUNDARIJA

	Kirish	4
	Asoslama	9
I bob.	5-sinfda ona tili ta'limining mazmuni;	12
1.1.	Ona tili ta'limining maqsad va vazifalari	
1.2.	5-sinf o'quvchilari ona tilidan egallaydigan bilim, ko'nikmalar va malakalar	
1.3.	Maktabda o'zlashma so'zlarni o'rganish.....	
II bob.	5-sinfda morfologik va sintaktik hodisalarni o'rgatishda integratsiyalashning ahamiyati	25
2.1.	“Sintaksis va morfologiya” bo'limlarining integratsiyasi	
2.2.	Integratsiyalashgan darslarda grammatik o'yinlardan foydalanish	
	Xulosa.....	47
	Foydalanilgan adabiyotlar.....	49